

Mobil ilovada ro'yxatdan o'tish bo'yicha bosqichma-bosqich ko'rsatmalar

1. App Store yoki Google Play'ni oching, Davr Mobile 2.0 ilovasini toping va o'rnatib.
2. O'rnatilgandan so'ng ilovani oching va tilni tanlang.
3. Ilovaga kirish uchun telefon raqamingizni +998 kodi bilan kiriting.
4. Ishonchli parol yarating. Ilova parolingiz xavfsizlik talablariga mos kelishini ko'rsatib turadi.
5. Ilovadan foydalanish shartlariga rozilik bildiring.
6. Ko'rsatilgan raqamga 6 xonali SMS-kod yuboriladi. Diqqat: kod bir daqiqa davomida amal qiladi.
7. Ilovaga kirish uchun 4 xonali PIN-kod yarating. Oddiy kombinatsiyalardan saqlaning.
8. PIN-kodni tasdiqlash uchun uni qayta kiriting.
9. Qulaylik uchun Face ID orqali kirishni faollashtirishingiz mumkin.
10. Ilovadan to'liq foydalanish uchun MY ID tizimi orqali shaxsni tasdiqlash jarayonidan o'ting.
11. Muvaffaqiyatli identifikatsiyadan o'tgandan so'ng ilovaga kartani qo'shing.
12. Plastik karta ma'lumotlarini kiriting. Kartaga qulay nom berishingiz va uni asosiy karta sifatida belgilashingiz mumkin.
13. Kartani biriktirish jarayonini yakunlash uchun telefon raqamingizga SMS orqali tasdiqlash kodi yuboriladi.
14. Karta muvaffaqiyatli biriktirilgach, ilova sizni karta bir soatdan keyin foydalanish mumkinligi haqida xabardor qiladi — bu O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki talablariga muvofiqdir.
15. Tayyor! Endi siz Davr Mobile 2.0 ilovasining qulay va keng funksiyalaridan foydalanishingiz mumkin. Biz ilovani mijozlarimiz uchun yanada qulay va xavfsiz qilish ustida doimiy ishlamoqdamiz.